
Farg'onada barak uylarda yashagan fuqarolar, Renovatsiya dasturi doirasida yangi ko'p qavatli turar-joy majmuasida xonadon egasiga aylandilar

Farg'ona shahrida A.Navoiy va Ma'rifat ko'chalari kesishmasidagi ikki qavatli ma'nan eskirgan uylar (baraklar) o'rnida Renovatsiya dasturiga asosan barpo etilgan yangi turar-joy majmuasi tantanali tadbir bilan foydalanishga topshirildi.

Tadbirda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat sektorlari rahbarlari ishtirok etdilar.

Jami 74 xonadondan iborat 8 qavatli turar-joy binosidan, eski uylarda yashab kelgan 24 ta oila ham yangi xonadon egasiga aylandilar. Bugungi tadbirda ushbu xonadonlarning kalitlari egalariga topshirilib, yangi uylarda faqat yaxshi kunlar, to'ylar bo'lishi tilagi bildirildi.

Davlatimiz rahbarining "Insonning yashash sharoiti yaxshi bo'lmasa, oilasida tinchlik, ishida unumdorlik bo'lmaydi" degan so'zlari, viloyatimizda aholi yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda bosh mezonlardan biri bo'layotgani tadbirda qayd etildi.

2021 yil mart oyida viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning shahar hududidagi o'rganishlari davomida 50-60 yillar avval qurilgan barak uylarda devorlarning zaxlab ketgani, tomlardan chakka o'tishi, binolarning fasadlari ayanchli ahvolda ekani, isitish va suv ta'minoti, kanalizatsiya bilan bog'liq muammolar talaygina ekaniga guvoh bo'lingandi.

Har bir alohida uy bo'yicha manzilli ish tashkil etish, shu uydagi barcha xonadon a'zolarining roziligi olingach, bino o'rniga zamonaviy, rivojlangan infratuzilmaga ega ko'p qavatli turar-joy barpo etish uchun tadbirkorlik sub'ekti jalb etish bo'yicha aholi vakillari bilan birgalikda yakdil qarorga borilgandi. Xonadon egalariga maydoni eski uylaridan kam bo'lmasligi sharti bilan shu yerda quriladigan yangi binodan xonadon berilishi alohida belgilab qo'yildi. 2021 yil dekabrda esa shahar bo'ylab qator ko'chalardagi barak uylar o'rniga yangi binolar barpo etish loyihasi boshlatildi.

Renovatsiya dasturi doirasida shahar hududida yana 8 ta yer maydonlaridagi mavjud eskirgan bir va ikki qavatli uylarni o'rniga 7, 9, 12 qavatli uy-joylar qurish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Bugungi tadbir qo'shaloq xursandchilik, qo'shaloq bayramga aylandi. Yangi turar-joy majmuasini barpo etgan "Marg'ilon ixtisoslashtirilgan ta'mir qurilish" MChJ homiyligida Farg'ona shahrining barcha mahallalaridan kelgan 106 nafar ehtiyojmand oila farzandlarining sunnat to'ylari ham o'tkazildi.

To'ybolalarga yangi sarpolar kiydirilib, har biriga velosiped va boshqa qator sovg'alar, oilalariga oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi.

Viloyatimizning taniqli san'atkorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar shodiyona tadbiriga yanada fayz baxsh etdi.

2023-04-08 18:03:01